

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKOLOGIYA TURKOLOGY


XALQARO ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2101

2025

2

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

2

2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro‘yxatidan o‘tgan
(№ 1129, 11.11.2020-y.) ISSN 2181 – 2101

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

TAHRIR HAY’ATI

Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)</i>
P. Kenjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas‘ul kotib)</i>
B. To‘xliyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Sodiqov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Usmonova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
H. Dadaboyev	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
N. Rahmonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
B. Karimov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Islamjanova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Hamidov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
A. Alimbekov	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
Dj. Shabanov	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
Sh. Sodiqova	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
M. Kayumova	<i>filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
M. Is‘hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
D. Sayfullayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Alimov	<i>tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
N. Xolmatov	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
Z. Qodirova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
M. Vohidova	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
O. Mert	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
V. S. Yelok	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
N. Telitsin	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE STUDIES

<i>Kencayeva P., Doğan L.</i> Orhan Kemal'in hikâyelerinde dönem manzaralarının sanatsal yorumu	4
<i>Qasım Y.</i> Erkin Vahidov və çağdaş Azərbaycan poeziyasında Vətən sevgisinin tərənnümü	14
<i>Muxiddinova D.</i> Zamonaviy turk va arab adabiyotida “Eng qisqa hikoya” janri.....	22
<i>Kayumova M.</i> Haldun Tanerning badiiy tildan foydalanish mahorati	29
<i>Karimova Sh.</i> Psixologizm va qahramon ruhiyati tahlili	38
<i>Saydaliyeva N., Tursunaliyeva D.</i> Turkiy xalqlar ertaklarining falsafiy-estetik jihatları	47
<i>Xolboboyeva N.</i> G‘azal, taxmis va qasidalar jamlangan nodir qo‘lyozma.....	57
<i>Xamdamov E.</i> Ziyo Go‘kalp she‘rlarida vatan – afsonaviy makon, uning bunyod etilishi sifatida.....	64
<i>Komilova Z.</i> Turk va o‘zbek dramaturgiyasida ozodlik masalasi: Turgut O‘zakman va Hamza dramalari misolida.....	75

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Emin O.</i> Kuzey Makedonya‘da Türk kültürünün sürdürülmesinde akademik bir köprü: üsküp Türk dili ve edebiyatı bölümü.....	84
<i>Aminova L.</i> Yaşar Kemal’in eserlerinde gerçek olayların tasviri	95
<i>Shabanov J.</i> Ortak Türk alfabesi hakkında bazı mülahazeler.....	104
<i>To‘laganova Sh.</i> Qadimgi turkiy bitiglarda urushga oid kontseptual metaforalar ..	113
<i>Allambergenova M.</i> “Ko‘k turk” etnonimining etimologiyasiga doir	121
<i>Altinboyev N.</i> “Oila” konseptining turk tilidagi qadriyat va metaforalarda ifodalanishi.....	135
<i>Shamsimatova M.</i> Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida qo‘llanilgan maqollarning semantik-uslubiy o‘ziga xosliklari	150
<i>Amirova N.</i> Görsel algı fiillerinin Türkçe ve İngilizce‘de kültürel ve dilbilimsel karşılaştırması	157

TARIXSHUNOSLIK // ИСТОРИОГРАФИЯ // HISTORIOGRAPHY

<i>To‘rayev L.</i> “Rabi’ ul-abror” asarining turkiyada o‘rganilishi.....	166
<i>Ergashev J.</i> Turkiy qabilalarning Buxoro uchun kurashi: tarixiy tahlil.....	173

ohang, “Vatanni qutqargan Shaban” asarida hajviylik, “Tegirmon hamon aylanar edi”da lirik-badiiy ruhning ustuvorligi kuzatildi.

Taner o‘z pyesalarida soddalikni saqlab, qahramonlarni o‘z davri tiliga yaqin, tushunarli so‘zlatish orqali, dramada so‘z qo‘llash me‘yoriga amal qiladi. Ammo u Yevropa madaniyatining targ‘ibotchisi sifatida ham o‘z dramalarida fransuzcha, nemischa, inglizcha so‘zlardan keng ko‘lamda foydalanadi. Shu bilan birga dramalarining badiiy tilida dialektizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Taner H. Eşegin Gölgesi.-Ankara:Bilgi Yayınevi, 1995.
 Taner H. Fazilet Eczanesi.-Ankara.Devlet Tiyatroları Yay., 1982.
 Taner H.Huzur Çıkması (Komedi 3.Perde). DevletTiyatroları Dramaturgi Bürosu.
 Taner H. Keşanlı Ali Destanı.-İstanbul:İzlem Yayınları, 1995.
 Yüksel A.Sahnedən İzdüşümler (1975-2000). –İstanbul: MitosBOYUT Yay., 2000.
 Танер Х. Кешанлик Али достони (М.Каюмова таржимаси). Т.: ТДШУ, 2021.
 Умуров Х. Бадий ижод асослари.- Т.: “Ўзбекистон” нашр., 2001.
 Қуронов Д., Мамажонов М., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. -Т.: “Академнашр” нашр., 2010.

PSIXOLOGIZM VA QAHRAMON RUHIYATI TAHLILI

Shaxnoza KARIMOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologizm badiiy tahlil doirasida o‘rganilgan bo‘lib, badiiy asarda qahramon ruhiyati dinamikasi, psixologik tasvir vositalari, psixologik detallarning adabiy matndagi o‘rni va vazifalari o‘rganilgan. Maqolada A.Yesin, O.Zolotuxina, M.Bedrikova kabi olimlarning psixologizm haqidagi qarashlari umumlashtirilib, A.J.Greimasning aktant va narrativ modellarining psixologik matn tahlilidagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda psixologik asarlarda personaj ruhiyatini ochib berishda bevosita va bilvosita tasvir, psixologik tafsilot, syujetga asoslangan ruhiy o‘zgarishlar e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: psixologizm, qahramon ruhiyati, qahramon ruhiyati dinamikasi, badiiy tasvir vositalari.

Özet: Bu çalışmada psikolojizm, edebi tahlil çerçevesinde incelenmiştir. Çalışmada edebi eserde kahramanın psikolojik durumu dinamiği, psikolojik betimleme araçları ve psikolojik detayların edebi metindeki yeri ve işlevi ele alınmıştır. Makalede A. Yesin, O. Zolotuhina ve M. Bedrikova gibi araştırmacıların psikolojizm hakkındaki görüşleri özetlenmiş, A. J. Greimas’ın Eyleyenler ve modellerinin psikolojik metin analizindeki imkânları değerlendirilmiştir. Araştırmada psikolojik eserlerde karakterin iç dünyasını

açığa çıkarmada doğrudan ve dolaylı betimleme, psikolojik detaylar ve olay örgüsüne dayalı ruhsal dönüşümleri incelenmiştir.

Anahtar kelimeler: *psikolojizm, kahraman psikoloji, kahraman ruhunun dinamiği, edebi betimleme araçları.*

Abstract: *This article examines psychologism within the framework of literary analysis, focusing on the dynamics of a character's inner world, psychological imagery tools, and the role and function of psychological details in literary texts. The views of scholars such as A. Yesin, O. Zolotukhina, and M. Bedrikova on psychologism are summarized, and the applicability of A. J. Greimas's actant and narrative models in the analysis of psychological texts is highlighted. The study emphasizes the use of direct and indirect description, psychological details, and plot-based emotional transformation in uncovering the inner world of literary characters.*

Keywords: *psychologism, character psychology, character's psychological dynamics, literary imagery tools.*

Kirish.

Zamonaviy ilm-fan sohasida antroposentriklashuv jarayoni jadallik bilan odimlamoqda. Jarayon badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik nazariyasi sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Inson qalbining aksi hisoblangan zamonaviy adabiyotning yangi shakl va ko'rinishlari adabiyotshunoslikda turli qarash va metodologik o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Adabiy jarayon bilan peshqadamlikda shakllangan adabiy tanqidda inson ruhiyati masalasiga bo'lgan e'tibor XX asrning boshlariga kelib adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining o'zaro kesishuviga sabab bo'lgan. Psixologiya va adabiyotshunoslik fanlari integratsiyalashuvi yozuvchi psixologiyasini biografik, psixogenetik, ijod psixologiyasi metodlari orqali, adabiy qahramon psixologiyasini psixoanaliz, psixologik tahlil, kitobxon psixologiyasini esa o'zlashtirish estetikasi metodlari orqali tadqiq etish imkoniyatini yaratishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur tadqiqot yo'nalishlari orasida psixologizm masalasi bugungi kunda ham yetarlicha o'rganilmagan va hali to'liq ilmiy yoritilmagan holicha qolmoqda.

Maqsad va vazifa: Maqolaning maqsadi — psixologizm uslubida yozilgan asarlarning tahlili mezonlarini belgilash, shuningdek, qahramon ruhiyati dinamikasini o'lchashda zamonaviy tahlil metodlarining imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada quyidagi vazifalar belgilangan:

psixologik asarlar tahliliga oid amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni o'rganish va tahlil qilish;

amaldagi tadqiqotlar asosida nazariy umumlashmalar chiqarish;

psixologik tahlil mezonlarini tizimlashtirish va ularni ilmiy asosda umumlashtirish;

psixologik asarlarni tahlil qilishda qahramon ruhiyati dinamikasini aniqlashda narrativ va aktant modellarining imkoniyatlarini belgilash.

Usullar: Mazkur maqola tahlilida nazariy tahlil va umumlashtirish usuli asosiy metod sifatida tanlandi. Psixologizmga oid adabiyotshunoslik qarashlari, ilgari amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar o'rganildi hamda ularning asosiy ilmiy yo'nalishlari tizimlashtirildi. Struktural yondashuv doirasida narrativ va aktant

modellarining psixologik talqindagi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Ushbu model-larning qahramon ruhiyati dinamikasini ochib berishdagi metodologik funksiyasi aniqlashtirildi. Tadqiqot nazariy asosga tayangan bo‘lib, psixologik tahlil mezonlarini belgilashga xizmat qiladi.

Natijalar va mulohazalar: N.Chernishevskiy L.Tolstoy ijodiga bag‘ishlangan izlanishlarida psixologizmni yozuvchi psixolog uslubi sifatida kashf etadi¹. Olim psixologizm va yozuvchi psixolog tushunchalarini adabiy tanqidning mustaqil tahlili sifatida o‘rganadi. Psixologizmning keng va tor ma‘noda qo‘llanilishi masalasiga e‘tibor qaratadi. Keng ma‘nodagi psixologizm asarning badiiylikning asosi hamda yagona bo‘lmagan mezonlaridan biri bo‘lsa², tor ma‘nodagi psixologizm esa psixologik asarlarda inson ruhiyatining teran tasviri badiiy asar uslubiga ko‘tarilgan ruhiyat dinamikasi hisoblanadi. N.Chenishevskiy tomonidan tadqiq etilgan tor ma‘nodagi psixologizm masalasi rus psixologik nasri tahlilida keng qo‘llaniladi va nazariy asoslari tadqiq etiladi. Xususan, L.Ginzburgning “Psixologik nasr haqida” nomli kitobida psixologizm haqida olimaning quyidagi fikrlar mavjud: “Psixologizm qahramon ruhiy hayotini, uning qarama-qarshiliklari, ziddiyatlarini sinchkovlik bilan o‘rganishdir. Badiiy asarda psixologizm to‘g‘ridan-to‘g‘ri muallifning nutqi, hamda qahramonlarning ichki monologi orqali bevosita yoki bilvosita imo-ishoralari, xatti-harakatlari orqali tasvirlanadi”³. L.Ginzburg tomonidan berilgan ta‘rifda psixologizm masalasi nisbatan umumiy yoritilgan bo‘lsa-da, O.Zolotuxinaning psixologizm haqidagi fikrlarida metodning keng ko‘lamli izohi ko‘rinadi. Unga ko‘ra: “Psixologizm bu muallif o‘z qadriyatlari va dunyoqarashiga tayangan holda badiiy asar qahramonining ichki dunyosini badiiy-majoziy, vizual-ekspressiv jihatdan qayta talqin qilib, badiiy asar asosiga aylantirish san‘ati” hisoblanadi⁴. O. Zolotuxina ta‘rifida psixologizm doirasida yozuvchi va uning psixologiyasini ham nazardan chetda qolmagani ko‘rinadi. Psixologizmning tub mohiyati yozuvchi uslubiga bog‘liq bo‘lib, olimaning bu boradagi fikrlari psixologizmning tub mohiyatini yoritishda o‘rinli bo‘lgan.

Inson ruhiyati tasviri badiiy adabiyotning yetakchi mezonlaridan biri bo‘lgani sababli, tor ma‘nodagi psixologizmni ushbu tasvirning muayyan badiiy tamoyillar orqali tasvirlanishi sifatida baholash o‘rinli bo‘ladi. Psixologizm tamoyillari M.Xrapchenkoning fikriga ko‘ra uch asosiy shaklga ega bo‘lib, bular: “Ruhiyat tasviri analitik, dinamik va ijtimoiy-maishiy, ya‘ni uchta asosiy tamoyillarda namoyon bo‘ladi”⁵. Ma‘lum badiiy asar doirasida yoritilgan mavzu ko‘lami,

¹ <https://ngchernyshevsky.ru/> Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М.: Огонек, 1974. – С. 505.

² Барабаш О. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л.Толстого Анна Каренина : Дисс ... канд. филол.наук. – Москва: МГУ, 2008. – С. 108.

³ Гинзбург Л. О психологической прозе.– Л.: Художественная литература, 1977. – С. 286.

⁴ Золотухина О. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу. – Гродно: ГРГУ, 2009. – С. 14.

⁵ Храпченко М. Художественное творчество, действительность, человек. Монография. – М.: Советский писатель, 1976. – С. 280

yozuvchining ijodiy niyati hamda badiiy asar g'oyasi ayni shu uchta tamoyillardan birining ustuvorligini keltirib chiqaradi.

Badiiy asar yoki yozuvchi uslubida ustuvorlik qilgan tamoyil undagi tasvir vositalarini ko'lamini hamda shaklini belgilaydi. Psixologik asarlarda ushbu tasvir vositalarining badiiy vazifasi psixologiklikni ta'minlashga qaratilgani sababli ularni psixologik tasvir vositalari deb nomlash o'rinli bo'lib, psixologik tasvir vositalarni L.Ginzburg, I.Straxov, V.Xalizov, A.Andreyevlar ikki turini belgilaydi. Bular - bevosita va bilvosita tasvir vositalari. Bevosita tasvir vositalari (ba'zi manbalarda ichkaridan tasvirlash vositalari) - qahramon nutqi, qalb dialektikasi, monolog va dialog. Bilvosita tasvir vositalari (tashqaridan tasvirlash vositalari) - qahramon ruhiy holati bilan parallel berilgan peyzaj, portret tasvirlari hisoblanadi¹.

Bevosita tasvir vositalari qahramon ruhiyatini to'g'ridan-to'g'ri nutqi (*xotira va tasavvur tasvirlari orqali, psixologik tahlil*) - monolog va ichki dialog orqali tasvirlaydi. Bilvosita tasvir vositalari esa yozuvchi tomonidan personaj nutqining *ekspressiv xususiyatlari, xulq-atvori, inson psixikasining tashqi ko'rinishlari, mimika, portret va peyzaj* kabi tasvir vositalari orqali ifodalanadi. Psixologik asarlarda ushbu vositalarning ikkala turi ham keng qo'llaniladi.

A.Andreyevning fikriga ko'ra, "Psixologik tasvir vositalari doim bir-birini to'ldirib turadi, qahramon o'z ichki kechinmalarini faqat ichki vositalar yoki faqat tashqi vositalar bilan ifodamaydi, ular uyg'unlikda asardan joy oladi"². Psixologik tasvir vositalarining uchinchi turi A.Yesin tomonidan kiritilgan umumlovchi tasvir vositalari bo'lib, ular inson ruhiyatidagi ma'lum bir jarayonni to'g'ridan-to'g'ri nomlash orqali beriladi³.

Bevosita psixologik tasvir vositalari qahramonning ichki va tashqi monologlarida, ichki dialoglarida, ong oqimi va qalb dialektikasi kabi shakllarida ko'rinadi. Bevosita tasvirning nisbatan kamroq uchraydigan yordamchi unsurlariga tushlar, maktub, kundalik va alahsirashlarni keltirish mumkin. Ushbu tasvir vositalari qahramon ruhiyatini ichidan ko'rsatib bersa-da, qahramon ruhiyatining batafsil tasvirini tashqi vositalarsiz to'liq yoritmaydi. An'anaviy tasvir usullarida, asosan muallif roviy tomonidan beriluvchi personaj xatti-harakatlari, mimikasi, portret va peyzaj tasvirlari zamonaviy asarlarda nutqning barcha shakllarida o'z aksini topmoqda. Bevosita tasvir vositalari badiiy asarda syujetni shakllantirishga xizmat qilsa, psixologik nasrda qahramon ruhiyati dinamikasini aks ettirish va xarakter yaratishga qaratilgani bilan farqlanadi.

Psixologik asarlarda qahramon ruhiyati va xarakterini shakllantirishda tasvir vositalari bilan birga psixologik detal, psixologik timsol, assotsiativ o'xshatishlar, ko'p ma'nolilik, majoziylik kabi vositalar ham muhim sanaladi. Ushbu psixologik vositalarning xususiyatlari, ularning tasnifi, badiiy asar kompozitsiyasida tutgan

¹ Страхов И. Психологический анализ в литературном творчестве: пособие для студентов пед. ин-тов.-Саратов: Изд-во Сарат. пед. ин-та, 1973. – С. 51.

² Андреев А. Целостный анализ литературного произведения: учебное пособие для студентов вузов. – Минск: Научно-методический центр Электронная книга БГУ, 2003. – С. 88.

³ Есин А. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – С. 13.

o‘rni M.Bedrikova tomonidan uch guruhga ajratiladi. Olima tadqiqotida psixologik tasvir vositalarini bosqichlarga ajratib, tizimlashtiradi. M.Bedrikovaning “1980-yilning ikkinchi yarmi rus nasrida psixologizm xususiyatlari” nomli tadqiqotida rus adabiyotida psixologizm masalasi maxsus o‘rganib chiqiladi. Masala muhokamasida olima *psixologizm bosqichlari* atamasini qo‘llaydi. Tadqiqotda psixologizmning uchta bosqichi quyidagicha beriladi:

1. Matnda psixologizmni kuchaytiruvchi tasvir vositalari (psixologik detal, psixologik tafsilot, qahramon xatti-harakatlari, psixologik tavsif);

2. Qahramon psixologiyasini tasvirlash vositalari (psixologik portret, psixologik xarakteristika, psixologik konflikt, psixologizmga asoslangan syujet, qalb dialektikasi);

3. Xarakterlar va vaziyat mutanosibligi (xronotopning qahramon “ruhiyati” tomonidan o‘zlashtirilishi, o‘zligini anglashi, vaziyat ta’sirida qahramon ruhiyatining o‘zgarishi)¹.

To‘g‘risi, olima tomonidan birinchi va ikkinchi bosqich deb ajratilgan bo‘limlar, aslida bir-biriga o‘xshash. Ularni alohida bo‘limlarga ajratmay yagona bosqichda birlashtirsa bo‘ladi. Uchinchi bosqichda ajratilgan qahramon xarakteri, voqelik va tig‘iz vaziyatlardagi o‘zgarishlarni alohida guruhga ajratish fikri o‘rinli bo‘lib, bu jihat psixologik nasrda ruhiyat dinamikasi tahlilida muhim ahamiyatga ega. Olima tomonidan aniqlangan uchta bosqichni ikki xil psixologik mezonlar doirasida tahlil qilish o‘rinli. Bular:

Birinchi mezon - matnda psixologizmni kuchaytiruvchi tasvir vositalari bo‘lib, ular badiiy tasvir vositalari, psixologik tafsilot, psixologik timsollar, psixologik detal, qahramon xarakteri va xatti-harakatlari, qalb dialektikasi;

Ikkinchi mezon - xarakter va vaziyat mutanosibligi bo‘lib, unga adabiy qahramon xarakterini shakllantiruvchi syujet, syujet unsurlari va qahramon ruhiyatidagi mutanosiblik, xronotopning qahramon ruhiyati tomonidan o‘zlashtirilishi kiradi.

Bunda ilgari surilgan, *birinchi mezon* - matnda psixologizmni kuchaytiruvchi tasvir vositalari tahlilida qahramon ruhiyatini aniq va haqqoniy baholashda psixologizmning badiiy mezonlari, psixologiya fanining inson ruhiyati bilan bog‘liq yutuqlari, psixoanaliz metodining o‘lchovlari inobatga olinsa, asardagi psixologik haqqoniylikni talqin qilish osonlashadi. Psixologik tahlilning ikkinchi mezoni bo‘lgan qahramon xarakteri va ruhiyati dinamikasining syujet silsilasidagi o‘zgarishlarini semiotik tahlil orqali o‘lchash samarali bo‘ladi. Sababi, psixologizm alohida metod sifatida shakllangandan so‘ng adabiyotshunoslik ilmida ham bir qator o‘zgarishlar yuz bergan, yangi tahlil metodlari yuzaga kelgan. Masalan, fransuz semiotika maktabining a‘zosi bo‘lgan J.Greimasning narrativ va aktant modellari voqelikda motivlar, konflikt va voqelik dinamikasini o‘lchashga qaratilgan tahlil usullaridan biri hisoblanadi. Aktant va narrativ modellar badiiy

¹ Бедрикова М. Особенности психологизма русской прозы второй половины 1980-х годов: Творчество В. Астафьева и В. Распутина. Дисс ... канд. филол. наук. автореф. – М: МПГУ, 1995. – С. 18.

asarning tub mohiyatini tushinish imkonini berganligi sabab, amalda asarning psixologik asoslarini ham ko‘rish imkonini beradi.

Ma‘lumki, qahramon xarakterining ochilishi va shakllanishida uning syujet bilan munosabati psixologik syujetning asosiy belgilaridan biridir. “Qahramonning syujet chizig‘idagi harakati esa, ularning zamon, makondagi harakatlari bilan bir qatorda, ruhiyatida bo‘lgan o‘zgarishlar, qahramonlarning o‘zaro munosabati, ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya-antipatiya – u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi va tashkil topib borishi”¹ aynan syujet chizig‘ida ko‘rinishi adabiyot nazariyasidan bizga ma‘lum.

Badiiy asar syujeti ustida olib borilgan tadqiqotlarda syujetning ma‘lum qoliplari va ushbu qoliplarda o‘zini namoyon qiluvchi xarakterlar tizimi mavjudligi kuzatilgan. Bu haqida birinchilardan bo‘lib rus olimi V.Propp “Ertaklarning morfologiyasi” nomli asarida ertaklardagi personajlarning voqealar rivojiga bo‘lgan ta‘siridan kelib chiqqan holda o‘ttiz bitta funksiyani bajaruvchi personajlar ro‘yxatini shakllantiradi². Olimning bu tadqiqoti keyinchalik strukturaviy adabiyotshunoslikning shakllanishiga asos bo‘lgan.

A.J.Greimas V.Proppning asarlarda takrorlanuvchi funksional personajlarni oltitaga tushiradi. U ushbu funksional personajlarni nomlashda lingvistikadagi *aktant (harakatlanuvchi)* atamasidan foydalangan holda o‘z *aktant modelini* shakllantiradi. A.J.Greimasning aktant modeli har qanday narrativ voqelikda harakatlanuvchi subyekt va orzu obyekt, yuboruvchi va oluvchi (adresant), yordamchi va opponent kabi vazifalarni bajaruvchi aktantlardan tashkil topishini aniqlaydi.

Narrativ rollarni bajaruvchi aktantlar personaj, predmet, makon yoki mavhum birliklardan iborat bo‘lishi mumkin³. Aktantlarning badiiy asar qahramoni va obrazidan farqi, ular syujet chizig‘ini shakllantirishda ma‘lum funksiyalarni bajaradi. Ular bajargan vazifasiga ko‘ra 6 xil aktant ajratiladi. Aktantlarning o‘zaro munosabati, manfaatlari va konfliktiga tayangan holda badiiy asar syujeti shakllanadi. Sezgin Demirning fikriga ko‘ra: “Aktant tahlilida aktantlarning tashqi va ichki portret xususiyatlaridan ko‘ra ularning vazifalari, faoliyatlarini oldingi planga chiqadi”⁴. Aktantlar voqelikda vazifalari va manfaatlariga asoslangan holda o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. J.Greimas aktantlar vazifa, manfaat

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2002. – Б.109.

² Пропп В.Морфология «волшебной» сказки. Исторические корни волшебной сказки. (Собрание трудов В. Я.Проппа.) Комментарии Е. М. Мелетинского, А. В. Рафаевой. Составление, научная редакция, текстологический комментарий И. В. Пешкова.– М.: Издательство Лабиринт,1998. – С. 512.

³ Greimas, Algirdas Julien 1973. «Actants, Actors, and Figures.» On Meaning: Selected Writings in Semiotic Theory. Trans. Paul J. Perron and Frank H. Collins. Theory and History of Literature, 38. Minneapolis: U of Minnesota P, 1987. – P.106-120.


⁴ Demir S. İlköğretim 6, 7 ve 8. Sınıflar Türkçe Ders Kitaplarındaki Öykülerinde Metnin Göstergibilimsel Yöntemlerle İncelenmesi ve Bu Metinlerden Öğrencilerden Anlama Düzeylerinde Etkisi.Yüksek Lisans Tezi. – Elazığ, – 2008. – S.30

ustida qurilgan munosabatlarini uch o'qda birlashtiradi: *kelishuv aloqa o'qi, manipulativ kelushiv o'qi va konflikt o'qi kabilar*¹.

Aktant modeliga ko'ra, har qanday syujetning boshlanish nuqtasida *yuboruvchi* va *oluvchi* o'rtasidagi *aloqa munosabati* o'rnatiladi. Aloqa munosabat *oluvchi aktantni* ayni damda harakat subyektiga aylantiradi.

Voqelikning birinchi bosqichida *yuboruvchi* harakat subyektini orzu obyektini olishga ishontradi va bu aktant modelida *so'zlashuv/manipulyatsiya* o'qidan joy oladi. Voqelik boshida *yuboruvchi* rolidagi personaj harakat obyektida (asosan bosh qahramon) yo'q bo'lgan ma'lum bir orzu obyektini qo'lga kiritishga *oluvchini* ishontrishi bilan boshlanadi. Bu holat sodda qilib aytganda, ertaklarda qirolning shahzodaga malikani va'da qilishi misol bo'la oladi. *Yuboruvchi* bilan *Oluvchi* o'rtasida olib borilgan bu kelushuvda *Oluvchi* shartni qabul qilganda o'z orzu obyektini qo'lga kiritish maqsadida ma'lum faoliyatni boshlaydi. Ushbu yo'l esa syujet (voqelik dasturi) o'qini tashkil qiladi. Voqelik dasturi syujetdagi voqealar rivojiga asos bo'ladi.

Aktant modelida yana bir muhim unsur konflikt hisoblanadi. Konflikt o'qida badiiy asarning asosini tashkil qiluvchi turli xil g'oya, shaxslar, qadriyatlar orasidagi to'qnashuv aks etadi. Aktant modelida konflikt yordamchi aktant va opponent aktantlar o'rtasida bo'ladi. Yordamchi aktant ertaklarda shahzodaning yoshligi, aqli, kuchi, do'sti v.b. hisoblansa, *opponent aktant* ertaklardagi yovuz kuchlar, malikanining shartlari bo'lishi mumkin. *Yordamchi, harakat subyektini va opponentlar* o'rtasidagi to'qnashuv aktant modelining konflikt o'qida o'z aksini topadi. Modeldagi uch o'q va uning aktantlarini quyidagi chizma (grafik tasvir) ko'rinishiga ega:



¹ Greimas, Algirdas Julien 1973. «Actants, Actors, and Figures.» On Meaning: Selected Writings in Semiotic Theory. Trans. Paul J. Perron and Frank H. Collins. Theory and History of Literature, 38. Minneapolis: U of Minnesota P, 1987. – P.106-120.

Modeldagi aktantlar vazifalariga asoslangan holda A.J.Greimasning *narrativ model* bosqichlari shakllantirilgan. Narrativ modeli an'anaviy syujetning sabab-natija munosabatiga aniqlik kiritadi. To'rt bosqichli narrativ model orqali qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni qayd etgan holda badiiy asardagi qahramon ruhiyati dinamikasini aniqlash mumkin.

A.J.Greimas narrativ modelida harakatlanuvchi subyektning orzusidagi obyektini qo'lga kiritish davomiyligini, ya'ni uning boshlang'ich holatdan yakuniy holatga o'tish jarayonini (transformatsiyasini) to'rtta harakat bosqichi doirasida sxemalashtirish mumkin.

Narrativ modelning 1- bosqichida *yuboruvchi* va *harakatlanuvchi subyekt* orasida *kelishuv* amalga oshiriladi. Bunda *yuboruvchi* aktant harakat subyektini orzu obyektini qo'lga kiritishga ishoniradi. "Yuboruvchi *kelishuv* bosqichida *harakat subyektining orzu obyektiga* erishishida ma'lum bir ishni bajarish bilan bir qatorda bajarimaslikka ham ishonirishi mumkin¹.

Ikkinchi bosqich *loyqlik* bosqichi *harakat obyektining uchinchi faollik* bosqichidagi faoliyatini ta'minlash uchun to'rt layoqatini qo'lga kirituvchi bosqich hisoblanadi². Bular istak, majburlik (ehtiyoj), kuch va bilim layoqatlari hisoblanadi. Loyqlik bosqichida dastlabki o'rinda qahramonning orzu obyektiga erishish *istagi* va *majburligi* voqeaning boshlanishida *zaruriy* layoqat bosqichini tashkil qiladi. "Zaruriy layoqat - orzu obyektining voqea boshlanishida mavjud bo'lmagan va keyingi voqealari rivoji uni qo'lga kiritishdagi istak va majburiyatini mujassamlashtiradi"³. Obyektning *ijroviy* layoqati voqea natijasiga ta'sir qiluvchi omillardan hisoblanadi. Layoqat bosqichining keyingi qismi *ijro layoqati* deb nomlanadi. Ijro layoqati *harakat obyektining orzusiga* erishishga *kuchining* borligi va orzusiga erishishning yo'l-usullarini *bilish* layoqatlaridan tashkil topadi. Harakat obyektining layoqat bosqichidagi *istagi, orzu obyektiga* bo'lgan ehtiyoji, maqsadiga erishish uchun yetarli bilim va ijro kuchiga ega bo'lishi voqealar rivojida uning *faollik* bosqichidagi natijalarini belgilab beradi.

Faollik bosqichi badiiy asar syujetida voqelar rivoji va yechimida aks etadi. Bu bosqichda harakat obyektini *boshlang'ich* holatdan *natija* holatiga o'tadi. Uning voqea rivojidagi harakatlari yoki harakatsizligi natijasida orzu obyektiga erishib *ijobiy* xotimaga yoki erisholmay *salbiy* natijaga erishadi. Ba'zi hollarda esa voqelik yechimi *noma'lum* bo'ladi yoki matnda ko'rsatilmaydi.

Narrativ modelning so'ngi bosqichi *hukm* bosqichi bo'lib, harakat subyektining ijro bosqichidagi faoliyati baholanadi. Harakat obyektining voqea boshlanishidagi holati voqea so'ngiga kelib o'zgarishga uchraydi. Orzu obyektiga erishib *taqdirlanadi* yoki erisholmay *jazolanadi*.

¹ V.Günay Göstergebilim Yazıları, Multilingual. – İstanbul. Doğan, 2012. – S. 99.

² Demir S. İlköğretim 6, 7 ve 8. Sınıflar Türkçe Ders Kitaplarındaki Öykülerinde Metnin Göstergebilimsel Yöntemlerle İncelenmesi ve Bu Metinlerden Öğrencilerden Anlama Düzeylerinde Etkisi. Yüksek Lisans Tezi. – Elazığ, – 2008. – S.30

³ V.Günay Göstergebilim Yazıları, Multilingual. – İstanbul. Doğan, 2012. – S. 103

A.J.Greimasning *aktant* va *narrativ* modellari badiiy asar tahlilida qo'llanilganda, matnning psixologik yoki psixologik emasligini belgilashda qo'l keladi. Aktant modeli badiiy asar qahramonining voqelikdagi asosiy motivlari, uning u yoki bu harakatni bajarishiga turtki bo'lgan omillarni belgilash imkonini beradi. Shuningdek, *narrativ* model psixologik mantlar tahlilida qo'llanganda, qahramonning dastlabki psixik holati bilan yakundagi psixik holatini, badiiy asar qahramonining ma'lum bir xatti-harakatlarni amalga oshirishda turtki, sabab va motivlarining psixologik jihatlarini aniqlash, qahramon psixik holati dinamikasini belgilash imkonini beradi.

Xulosa.

Tadqiqot yakunida shuni ta'kidlash joizki, badiiy psixologizm badiiy asarda inson ruhiyatini tizimli, bir butun birlik sifatida yoritishning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Metod doirasida badiiy asar muallifining psixologiyasi, ijod psixologiyasi, qahramon psixologiyasi va uning yoritish vosita va usullari keng o'rganilgan. Izlanishlarda ijodkor psixologiyasi va qahramon psixologiyasi tahlilida psixoanalizning ilmiy-tahliliy metodlari e'tibordan chetda qolgan. Shuningdek, psixologik turdagi matnlarning asosiy birliklari, qahramon ruhiyati dinamikasi uning syujet davomidagi transformatsiyasi ilmiy tahlilga tortilmagan. Buni badiiy psixologizm metodining zamonaviy adabiyot tahlilidagi asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Андреев А. Целостный анализ литературного произведения: учебное пособие для студентов вузов. – Минск: Научно-методический центр «Электронная книга» БГУ, 2003. – 224 с.
2. Барабаш О. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л.Толстого «Анна Каренина»: дис. ... канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 2008. – 208 с.
3. Бедрикова М. Особенности психологизма русской прозы второй половины 1980-х годов: творчество В. Астафьева и В. Распутина: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: МПГУ, 1995. – 202 с.
4. Бобоев Т. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2002. – 560 b.
5. Demir S. İlköğretim 6, 7 ve 8. sınıflar Türkçe ders kitaplarındaki öykülerinde metnin göstergebilimsel yöntemlerle incelenmesi ve bu metinlerin öğrencilerden anlama düzeylerine etkisi. Yüksek Lisans Tezi. – Elazığ, 2008. – 400 s.
6. Гинзбург Л. О психологической прозе. – Л.: Художественная литература, 1977. – 286 с.
7. Greimas A. J. Actants, Actors, and Figures. // On Meaning: Selected Writings in Semiotic Theory. Trans. Paul J. Perron and Frank H. Collins. Theory and History of Literature, 38. – Minneapolis: U of Minnesota Press, 1987. – P. 106–120.
8. Günay V. Göstergebilim Yazıları. – İstanbul: Doğan, 2012. – 235 s.
9. Храпченко М. Художественное творчество, действительность, человек: монография. – М.: Советский писатель, 1976. – 280 с.

10. Пропп В. Морфология «волшебной» сказки. Исторические корни волшебной сказки // Собрание трудов В. Я. Проппа. Комментарии Е. М. Мелетинского, А. В. Рафаевой. Сост., науч. ред., текстол. комм. И. В. Пешкова. – М.: Изд-во Лабиринт, 1998. – 512 с.
11. Страхов И. Психологический анализ в литературном творчестве: пособие для студентов пед. ин-тов. – Саратов: Изд-во Саратов. пед. ин-та, 1973. – 157 с.
12. Толстой Л. Н. Собрание сочинений: в 15 т. Т. 2. – М.: Огонек, 1974. – 505 с.
13. Есин А. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – 43 с.
14. Золотухина О. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу. – Гродно: ГРГУ, 2009. – 178 с.

**TURKIY XALQLAR ERTAKLARINING FALSAFIY-ESTETIK
JIHATLARI (O‘ZBEKLARNING “ZUMRAD VA QIMMAT”,
TURKLARNING “KALO‘G‘LON” ERTAKLARI MISOLIDA)**

Nigora SAYDALIYEVA

Falsafa fanlari nomzodi, TDSHU

Dilora TURSUNALIYEVA

Magistratura talabasi, TDSHU

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlarning og‘zaki an‘analari tarkibida muhim o‘rin tutuvchi ertaklarning falsafiy va estetik jihatlari o‘rganilgan. O‘zbeklarning “Zumrad va Qimmat” hamda turklarning “Kalo‘g‘lon” ertaklari misolida ertaklarning tarbiyaviy, axloqiy hamda badiiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ertaklarning asosiy mazmuni, ularning jamiyatga ta‘siri hamda milliy o‘ziga xosliklari ko‘rib chiqiladi. Maqolada turkiy xalqlar og‘zaki ijodining umumiy jihatlari va farqlari tahlil qilinib, ertaklarning falsafiy mazmuni yoritilgan. Natijalar esa ertaklarning madaniy meros sifatida saqlanishi va rivojlanishidagi o‘rnini ochib beradi.

Tayanch so‘zlar: ertak, turkiy xalqlar, falsafa, estetika, og‘zaki an‘ana, “Zumrad va Qimmat”, “Kalo‘g‘lon”, tarbiya, axloq, madaniy meros.

Özet. Bu makalede Türk halklarının sözlü geleneklerinde önemli bir yer tutan masalların felsefi ve estetik yönleri ele alınmaktadır. “Zümrad ve Kımmat” Özbek masalı ve “Keloğlan” Türk masalı örneklerinde masalların eğitici, ahlaki ve sanatsal yönleri incelenmektedir. Araştırmada masalların temel içeriği, toplum üzerindeki etkisi ve milli kimlik üzerindeki etkisi incelenmektedir. Makalede Türk halklarının sözlü edebiyatının ortak ve farklı yönleri incelenmekte, masalların felsefi içeriği vurgulanmaktadır. Sonuçlar, kültürel mirasın korunması ve geliştirilmesinde masalların rolünü ortaya koymaktadır.

Anahtar kelimeler: masal, Türk halkları, felsefe, estetik, sözlü gelenek, “Zumrad ve Kımmat”, “Keloğlan”, eğitim, ahlak, kültürel miras.